



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz, Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzaevich, Raxmonberganov Surojbek Uktambov o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktambov o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahan Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диеъра Улугбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GARVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zaripbayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamonv Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахроров Зариф Орупович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136
40.	MAMLAKATIMIZDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR <i>Baxtiyor Artikov</i>	139
41.	O'ZBEKISTONDA O'RTA VA KATTA BIZNESLARDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH VA ULARNI OLDINI OLIH MEXANIZMLARI <i>Boyniyozov Ro'zimbek G'ulomjon o'g'li, Abduqahhorova Maxliyo Albert qizi, Muradullayev Sarvar Muradulla o'g'li</i>	146

42.	NARXLAR STATISTIKASI KUZATUVLARINI DATA SCIENCE TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Odiljonov Ikromjon Komiljon o'g'li</i>	150
43.	BOZOR IQTISODIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH: NAZARIY EVOLYUTSIYA, MEXANIZMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR <i>Karimova Latofat Sadullayevna</i>	153
44.	TIJORAT BANKLARINING UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITAL YETARLILIGINI BOSHQARISH STRATEGIYASI <i>Mamadjonov Shukurillo Ibrohimjon o'g'li</i>	157
45.	OLIY TA'LIMNING HUDUDIY IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI: PANEL FIXED EFFECTS EKONOMETRIK MODEL ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) <i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	161
46.	RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA BYUDJET SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Salomov Abdusalom Ismatovich</i>	166
47.	УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ОГРАНИЧЕНИЙ <i>Тухтаев Максуд Мансурович</i>	169
48.	KO'P O'LCHOVLI KAMBAG'ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI <i>Urazbayev Raxmatjon Otajanovich</i>	172
49.	ASSESSING THE INCLUSIVITY OF GDP GROWTH AND ITS IMPACT ON POPULATION WELL-BEING IN UZBEKISTAN: A STATISTICAL ANALYSIS <i>Chintemirova Diyora Shuxrat qizi</i>	181
50.	O'ZBEKISTONDA TURIZM SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY VA INVESTITSION OMILLARI <i>Bau Long</i>	185
51.	THE EFFECT OF ENTERPRISE RESOURCE PLANNING (ERP) SYSTEMS ON ADMINISTRATIVE EFFICIENCY IN UNIVERSITIES <i>Olimjonov Abbosjon Olimjonovich</i>	189
52.	MAHALLABOSHQARUV TIZIMINING SHAHAR BYUDJETI, INFRATUZILMASI VA INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIRI <i>Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi</i>	193

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



MAHALLABOSHQARUV TIZIMINING SHAHAR BYUDJETI, INFRATUZILMASI VA INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIRI

Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi

Yunusobod tumani hokimligi. Yangi Tarnov mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli
E-mail: roxilaumarova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahar mahallalarining ijtimoiy-iqtisodiy, etnodemografik va hududiy tuzilishi tahlil qilingan. Mahallalarning an'anaviy va yangi kvartal turlarga bo'linishi, ularning aholi soni, bandlik tarkibi, etnik xususiyatlari va toponimik o'zgarishlari o'rganilgan. Shuningdek, mahallalar sonining yillar davomida o'sish dinamikasi (1992-yildagi 279 tadan 2021-yilda 529 taga yetganligi) va unga ta'sir etgan omillar yoritilgan. Maqolada mahallalarning shahar infratuzilmasi, byudjet va investitsion jozibadorlikka ta'siri masalalari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent shahri, mahalla, o'zini o'zi boshqarish organlari, bandlik, etnik tarkib, toponimika, infratuzilma, investitsion jozibadorlik, shahar byudjeti.

Abstract: This article analyzes the socio-economic, ethno-demographic, and territorial structure of mahallas (neighborhood communities) in Tashkent city. The study examines the classification of mahallas into traditional and new residential types, their population size, employment structure, ethnic composition, and toponymic changes. The dynamics of the growth in the number of mahallas over the years (from 279 in 1992 to 529 in 2021) and the influencing factors are highlighted. The article also addresses the impact of mahallas on urban infrastructure, the city budget, and investment attractiveness.

Keywords: Tashkent city, mahalla, self-governance bodies, employment, ethnic composition, toponymy, infrastructure, investment attractiveness, city budget.

Абстрактный: В данной статье анализируются социально-экономическая, этнодемографическая и территориальная структура махаллей города Ташкента. Рассмотрено разделение махаллей на традиционные и новые квартальные типы, изучены их численность населения, структура занятости, этнические особенности и топонимические изменения. Освещена динамика роста числа махаллей за годы (с 279 в 1992 году до 529 в 2021 году) и факторы, повлиявшие на этот процесс. В статье также затронуты вопросы влияния махаллей на городскую инфраструктуру, бюджет и инвестиционную привлекательность.

Ключевые слова: город Ташкент, махалля, органы самоуправления, занятость, этнический состав, топонимика, инфраструктура, инвестиционная привлекательность, городской бюджет.

Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi zamonaviy sharoitda dunyo miqyosida mahalliy o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari o'ziga xos izchil islohotlar davrini boshdan kechirmoqda. Mazkur tuzilma barcha davlatlarda o'zini o'zi boshqarish quyi tizimi sifatida jadal o'zgarishlar bilan hamohang faoliyat olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratib, fuqarolarning jamiyat quyi bo'g'inlarida yanada kengroq ishtirok etish imkoniyatini yaratmoqda. Natijada o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari qonun ustuvorligini ta'minlashning zarur subyekti sifatida jamiyatni isloh qilishda asosiy bo'g'in rolini o'ynamoqda. Bugungi kunda mahalliy o'zini o'zi boshqarish sohasini takomillashtirishning asosiy shartlaridan biri bu, avvalombor barcha quyi darajadagi hokimiyat organlarining huquq va vakolatlarini yanada kengaytirish, ularning mahalliy darajadagi boshqaruv jarayonlarida faol ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iboratligi yanada ravshanlashmoqda. Bu esa xalqaro miqyosda mahalliy boshqaruv tuzilmalarini fuqarolik jamiyatining quyi bo'g'ini sifatidagi obro' – e'tiborini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

So'nggi yillarda mahalla boshqaruv tizimining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, shahar byudjetini shakllantirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish hamda investitsion muhitni yaxshilashda mahalla institutining ahamiyati ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Tadqiqotchilar mahalliy boshqaruv organlari va fuqarolar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi hududlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar [1].

Mahalliy boshqaruv tizimlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda hududiy byudjet mablag'larini taqsimlashda jamoatchilik ishtirokining ortishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi aniqlangan. Xususan, mahalla darajasida ehtiyojlarni aniqlash va ustuvor

loyihalarini tanlash amaliyoti shahar byudjeti xarajatlarining maqsadlilikini ta'minlaydi [2]. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv texnologiyalarining joriy etilishi mahalliy moliyaviy boshqaruvning ochiqligi va hisobdorligini kuchaytiradi [3].

Shahar infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda mahalla institutlari transport, kommunal xizmatlar, ichimlik suvi, elektr energiyasi va ijtimoiy obyektlar bilan bog'liq muammolarni aniqlashda muhim bo'g'in sifatida e'tirof etiladi [4]. Mahallalar tomonidan shakllantiriladigan ma'lumotlar bazasi va aholining murojaatlari asosida infratuzilma loyihalarining ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkoniyati yaratiladi [5].

Investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda ham mahalliy boshqaruvning samaradorligi muhim determinant sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlarda boshqaruv sifati yuqori bo'lsa, investorlar uchun xavflar kamayadi va investitsiya muhiti yaxshilanadi [6]. Mahallalar tomonidan tadbirkorlik subyektlari bilan muntazam muloqot olib borilishi, mavjud muammolarni tezkor hal etish mexanizmlarining joriy etilishi investitsiya oqimlarining ortishiga xizmat qiladi [7].

Shuningdek, barqaror shahar rivojlanishi konsepsiyasiga oid ilmiy adabiyotlarda mahalla boshqaruvining inklyuziv rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishdagi roli alohida qayd etilgan. Aholining qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol ishtiroki shahar infratuzilmasi sifati va investitsiya loyihalarining ijtimoiy samaradorligini oshiradi [8]. Zamonaviy tadqiqotlar mahallalarni raqamli platformalar orqali boshqarish, geoma'lumotlar tizimlaridan foydalanish hamda "aqlii shahar" konsepsiyalariga integratsiyalash orqali shahar byudjeti va investitsiya faoliyatini yanada takomillashtirish mumkinligini ko'rsatmoqda [9].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili mahalla boshqaruv tizimining shahar byudjeti samaradorligini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya

qilish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda muhim institutsional omil ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda mahalla boshqaruv tizimining shahar byudjeti, infratuzilma va investitsion jozibadorlikka ta'sirini baholash uchun kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy va metodologik asosini mahalliy boshqaruv, hududiy iqtisodiyot, davlat moliyasi hamda investitsiyalarni boshqarish bo'yicha zamonaviy ilmiy konsepsiyalar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil usuli qo'llanilib, mahalla boshqaruv tizimining shahar iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va funksiyalari o'rganildi. Ushbu yondashuv mahallaning shahar byudjeti daromadlari va xarajatlari, infratuzilma loyihalari hamda investitsion faoliyat bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, statistik tahlil usulidan foydalanilib, hududlarning byudjet ko'rsatkichlari, infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasi, investitsiyalar hajmi va tadbirkorlik subyektlari soni kabi ma'lumotlar o'rganildi. Statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlash orqali mahalla boshqaruvining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri baholandi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida mahalla boshqaruvi samarali yo'lga qo'yilgan hududlar bilan nisbatan past natija ko'rsatgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari taqqoslandi. Bu esa mahalla institutining shahar rivojlanishidagi amaliy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda ekspert baholash usuli ham qo'llanildi. Mahalla raislari, mahalliy hokimiyat organlari vakillari, iqtisodchi mutaxassislar va tadbirkorlar fikrlari o'rganilib, mahalla boshqaruv tizimining investitsion muhit va infratuzilma rivojlanishiga ta'siri yuzasidan xulosalar shakllantirildi.

Bundan tashqari, induksiya va deduksiya usullari orqali alohida mahallalar faoliyati natijalari umumlashtirilib, shahar miqyosidagi iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tahlil qilindi. Grafik, jadval va analitik ko'rsatkichlar yordamida olingan natijalar tizimlashtirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hisobotlari, xalqaro tashkilotlar nashrlari hamda mahalliy boshqaruv va hududiy rivojlanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi. Mazkur metodologik yondashuvlar mahalla boshqaruv tizimining shahar byudjeti samaradorligi, infratuzilma sifati va investitsion jozibadorlikka ta'sirini har tomonlama baholash imkonini berdi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Toshkent shahri mahallalari soni, tavsifi, geografik joylashuvi, etnohududiy xususiyatlari, aholining o'ziga xos turmush tarzi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida Toshkent shahar mahallalari quyidagi ikki toifaga ajratildi:

1. An'anaviy mahallalar;

2. Yangi kvartal (mavze) larda tashkil topgan mahallalar.

Shu bilan birga mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy, etnodemografik holati, aholining joylashuv xususiyatlari, ularning turmush tarzidan kelib chiqib yana bir qancha toifalarga ajratildi. Ular quyidagilar: a) asosan mahalliy aholi istiqomat qiladigan an'anaviy mahallalar; b) aralash millatlar istiqomat qiladigan yangi mahallalar; v) bir xil soha va kasb vakillari istiqomat qiladigan mahallalar; g) asosan yangi turar-joylar hududidagi yosh oilalar istiqomat qiladigan mahallalarga taqsimlandi. Etnik aralash mahallalar shaharning Mirobod, Yunusobod, Sergeli, Yakkasaray, Mirzo Ulug'bek, Chilonzor tumanlarida ko'proq uchrashini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotda Toshkent shahar mahallalarini quyidagi besh toifaga bo'ldik:

aholisining asosiy qismi kichik ishlab chiqarish va ayrim mayda sanoat ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi mahallalar;

aholisining asosiy qismi tadbirkorlik va kichik ishlab chiqarish tarmoqlari bilan shug'ullanuvchi mahallalar;

aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi mahallalar; aholisining asosiy qismi ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik va sanoat tarmoqlari bilan shug'ullanuvchi mahallalar;

aralash mahallalar.

Shuningdek, mahallalarni ijtimoiy-demografik tavsifi va kattalikligiga qarab quyidagi guruhlariga ajratdik:

kichik mahallalar – 1500-2000 kishi;

o'rta mahallalar – 2000-3000 kishi;

katta mahallalar – 3000-7000 kishi;

yirik mahallalar – 7000 kishidan ziyod.

Agar tarixiy raqamlarga e'tibor qaratilsa, XX asrning 90-yillari boshida O'zbekistonda 11 mingga yaqin mahalla fuqarolar yig'ini faoliyat yuritgan bo'lsa, Toshkent shahrida 450 ta bo'lib, 2017-yilda ular

soni 505 ta bo'lgan, 2019-yilda 508 taga yetdi. 2021-yilga kelib 529 tani tashkil etdi.

Tadqiqot davrida Toshkent shahar mahallalarining toponimik obyekt sifatidagi o'midan kelib chiqib, ilgari sovet tuzumi davridan qolgan nomlar o'rniga mahalliy nomlarga o'zgartirildi. Shahar mahallalari nomlarining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qildi:

birinchidan, O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi natijasida tarixiy ma'naviy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi joy nomlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasidagi toponimik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasining xulosalariga ko'ra Toshkent shahridagi mahallalar nomlari qayta ko'rib chiqildi;

uchinchidan, shahardagi mahallalarning joylashgan o'rni, tabiiy sharoiti, etnik xususiyatlaridan kelib chiqib ayrim mahalla nomlari qaytadan o'zgartirildi. Aholi va mahallalar sonining muttasil ortib borishi shahar tashqarisidan ayrim hududlarning qo'shilishi natijasida ham kengayib, ular aholisi ham ortib borgan (Bunday mahallalar asosan "Bektimir", "Sergeli", "Olmazor", "Yunusobod", "Yashnobod" tumanlariga to'g'ri keladi). Bunday o'ziga xoslik O'zbekistonning boshqa yirik shaharlarida kam uchraydigan holatdir.

Agar mahallalar sonidan kelib chiqib tavsif berilsa, birgina 1992-yilda Toshkent shahrida 279 mahalla faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1995-yilda ularning soni yangi, ko'p qavatli uylar hududida tashkil etilgan mahallalar hisobiga ancha ortganligini ko'rish mumkin. Vaholanki, Toshkent shahrida 2011-yilga kelib mahallalar soni 493 taga yetgan bo'lsa, 2021-yilda 524 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud edi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mahalla boshqaruv tizimi shaharlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Mahallalarning hududdagi muammolarni aniqlash, aholi ehtiyojlarini o'rganish va ularni mahalliy davlat boshqaruvi organlariga yetkazishdagi faoliyati shahar byudjeti mablag'laridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Natijada byudjet xarajatlarining maqsadliliigi va manzilliligi oshadi.

Tahlillar mahalla boshqaruvi va infratuzilma rivojlanishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Mahallalar tomonidan shakllantirilgan taklif va tashabbuslar asosida yo'l-transport, ichimlik suvi, elektr energiyasi, obodonlashtirish hamda ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarning samaradorligi ortadi. Bu esa aholining turmush sifati va shaharlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mahalla boshqaruvining samarali faoliyati investitsion muhitni yaxshilashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hududdagi muammolarning tezkor hal etilishi, tadbirkorlik subyektlari bilan muntazam muloqotning yo'lga qo'yilishi va jamoatchilik nazoratining kuchayishi investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Natijada investitsiya oqimlari va yangi ish o'rinlari soni ortadi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda mahalla boshqaruvining moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli boshqaruv vositalarining cheklanganligi hamda mahalliy tashabbuslarni moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashmaganligi mavjud salohiyatdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Takliflar

1. Mahallalarning shahar byudjetini shakllantirish va taqsimlash jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish, jamoatchilik muhokamalari asosida ustuvor loyihalarni tanlash amaliyotini rivojlantirish lozim.

2. Mahalla boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, infratuzilma muammolari va aholi murojaatlarini onlayn monitoring qilish platformalarini yaratish maqsadga muvofiq.

3. Mahallalarda infratuzilma loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish uchun maqsadli jamg'armalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish zarur.

4. Investorlar bilan ishlashda mahalla, hokimlik va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda investitsiya loyihalarni mahalla darajasida qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish tavsiya etiladi.

5. Mahalla raislari va mutaxassislarining iqtisodiy tahlil, loyiha boshqaruvi va investitsiyalarni jalb etish bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish lozim.

6. Mahallalar faoliyatini baholashda byudjet samaradorligi, infratuzilma sifati va investitsiya faolligi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan reyting tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

7. "Aqlli mahalla" konsepsiyasini rivojlantirish orqali geoinformatsion tizimlar, raqamli xaritalar va elektron xizmatlardan foydalanish darajasini oshirish zarur.

Umuman olganda, mahalla boshqaruv tizimini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida takomillastirish shahar byudjeti samaradorligini

o'shinish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. World Bank. Local Governance and Service Delivery in Urban Areas. Washington, DC, 2024.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development. Subnational Governments around the World: Structure and Finance. Paris, 2024.
3. United Nations Development Programme. Digital Governance for Sustainable Urban Development. New York, 2024.
4. United Nations Human Settlements Programme. World Cities Report 2024: Cities and Communities for All. Nairobi, 2024.
5. Asian Development Bank. Urban Infrastructure Financing and Local Governance. Manila, 2023.
6. World Economic Forum. Future of Cities Report 2024. Geneva, 2024.
7. United Nations Conference on Trade and Development. World Investment Report 2024: Investment and Sustainable Development. Geneva, 2024.
8. United Nations. Sustainable Development Goals Report 2024. New York, 2024.
9. European Commission. Smart Cities and Communities Progress Report 2024. Brussels, 2024.